

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA’LIM VAZIRLIGI**

QARSHI MUHANDISLIK IQTISODIYOT INSTITUTI

**Muhandis texnika fakulteti 5430100 - “Qishloq xo‘jaligini
mexanizatsiyalashtirish” bakalavr ta’lim yo‘nalishi talabasi
Niyozqulov Dilshod Xudoyqul o‘g‘lining**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: Ishchi organi takomillashgan mashina yordamida
o‘g‘it sochishni mexanizatsiyalashtirish**

Rahbar:

dots.Toirov I.J.

Ish bajaruvchi:

Niyozqulov D.

«Himoyaga ruxsat etildi»

Kafedra mudiri _____

dots.D.Chuyanov

«_____» _____ 2018 yil

«Himoya uchun DAKga yuborildi»

Fakultet dekani _____

dots.M.Aliqulov

«_____» _____ 2018 yil

QARSHI-2018 y.

KIRISH

Mamlakatimiz mustaqillikni qo‘lga kiritgan kundan boshlab xalqimiz uchun iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy, shuningdek madaniy va ma‘naviy yangilanishlarning keng istiqbollari ochildi. Jumladan, davlatimiz oldida maqsad qilib qo‘yilgan vazifalarni amalga oshirish uchun kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini izchil rivojlantirish masalasi mustaqillikning dastlabki davrdan boshlab davlatimizning ustuvor vazifasi darajasiga ko‘tarildi.

Zero, yurtboshimiz ta’kidlaganidek, “Barchamiz bir haqiqatni yaxshi anglab olishimiz lozim. Tarixning qaysi davrini olmaylik, xonlar va amaldorlar emas, amaldor-to‘ralar va turli-tuman tekshiruvchilar emas, balki g‘ayrat-shijoatli, tashabbuskor va tadbirkor insonlar mamlakatning gullab-yashnashi va xalq farovonligini ta’minlaganini ko‘ramiz”.

Respublikamiz g‘alla mustaqilligiga erishdi, aholini un va un mahsulotlari bilan ta’minlash uchun hozirgi kunda 1 mln 200 ming gektar lalmi va sug‘oriladigan 300 ming gektar maydonlarga g‘alla ekilmokda.

Yetishtirilayotgan g‘allaning tannarxini kamaytirish, uning bahosini arzonlashtirish uchun undan mo‘l hosil olishga katta e’tibor berilmokda.

Respublikamizning o‘ziga xos tabiiy iqlim va tuproq sharoitini e’tiborga olgan holda g‘alla asosan kuzda ekilmokda. Erta bahorda uni oziqlantirish boshlanadi. Tuproqning unumdorligi va uning boshqa fizik - mexanik xususiyatlari, g‘allaning bahorgi holatini etiborga olib, har bir gektar maydonga 600 - 800 kg ammiak, fosfor va kaliyli mineral o‘g‘itlar berishadi.

Mavzuga doir ilmiy adabiyotlarni o‘rganish asosida mineral o‘g‘it sochish mashinalarni ishchi organlarini sifatini oshirish masalasi bir necha xil ilmiy yo‘nalishlarda tadqiq etilganligi aniqlandi. Lekin ularda mineral o‘g‘it sochish mashinalarni ishchi organlarini sifatini oshirish masalasi keng qamroali tadqiqot predmeti sifatida o‘rganilmagan.

Dunyo bo'yicha g'allani oziqlantirish uchun beriladigan barcha turdagi donador va kristal simon mineral o'g'itlar, yoppasiga sochish usulida amalga oshiriladi. Ba'zi davlatlarda jumladan, Bolgariya, Vengriya va yevropaning boshqa hududlarida g'allani oziqlantirishdan tashqari uni ekish ham yoppasiga sochish usuli bilan amalga oshiriladi. Bu usulning afzalligi va iqtisodiy samarasi shundan iboratki, birlik maydonga sarflanadigan harajat eng kam miqdordagi qiymatda bo'lishi ta'minlanadi.

Mineral o'g'itlarni yoppasiga sochish usulini amalga oshiradigan ishchi organlar orasida markazdan qochma turdagilar eng keng tarqalgan hisoblanadi. Chunki, ishchi organning tuzilishi odiiy, unga texnik xizmat ko'rsatish qulay va uni ta'mirlash katta mablag' talab etmaydi, extiyoj sezilganda mashina traktor parklarida uni tayyorlash mumkin.

Tadqiqot obyekti sifatida markazdan qochma ishchi organlarga quyidagi agrotexnik talablar qo'yilgan. Ushbu talablar sochiluvchan mineral o'g'itlarning barchasiga bir xil ta'lluqli bo'lib, jumladan, ularning notekis taqsimlanishi ish kengligi bo'yicha $\pm 25\%$, o'g'itlash miqdori esa $\pm 15\%$ dan oshmasligi lozim.

Tadqiqot predmeti sifatida yuqorida qayd etilgan agrotexnik talablar sanoatimiz ishlab chiqaraётgan mineral o'g'it donalarining o'lchamlari belgilangan standart talablari asosida ishlab chiqarilganda bajariladi.

Holbuki, bu talab har doim ham qoniqarli miqdorda ta'minlanmaydi, natijada markazdan qochma ishchi organlar belgilangan agrotexnik talablarni bajara olmaydi.

Yuqorida keltirilganlardan, sanoatimiz ishlab chiqaraётgan donador mineral o'g'itlarning o'lchami farqi qanday bo'lishidan qat'iy nazar ularni mashinaning ish kengligi tekis taqsimlanishini ta'minlaydigan ishchi organlarni ishlab chiqish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Yuqorida keltirilganlarni inobatga olib men ushbu malakaviy bitiriyv ishimda mineral o'g'itlarni markazdan qochma tyrdagi ishchi organlar bilan sochganda mineral o'g'itlarni keragidan ortiq isrof bo'lmasligini traktorchining

vaqtini bekorga sarf qilmaslikni maqsad qilib belgiladim.

Qo'yilgan maqsadga erishish uchun markazdan qochma ishchi organ bilan jixozlangan mineral o'g'it sochish mashinasining o'g'it sepuvchi diskini konstruksiyasini takomillashtirish orqali erishiladi.

Bitiruv ishida quyidagi ko'rsatkichlarning tahlili keltirildi va hisoblash ishlari bajarildi.

1. O'g'itlash mashinalarining tasniflanishi;
2. Mineral o'g'itlarni taklif etilgan ishchi organ o'rnatilgan mashinada sochish texnologik xaritasi;
3. Mineral o'g'itlarni notekis taqsimlanish sifatini aniqlash usullari;
4. Takomillashgan ishchi organ bilan jixozlangan o'g'itlash mashinasini iqtisodiy ko'rsatkichlari hisobi.

Ushbu bitiruv malakaviy ishda umum ilmiy induktiv va deduktiv metodlar va maxsus qishloq xo'jalik metodlar, jumladan kuzatuv, analiz metodlaridan foydalaniladi.

I. UMUMIY QISM

1.1. Mineral o'g'itlar va ularning qo'llanilishi to'g'risida ma'lumot.

Kimyoviy tarkibiga ko'ra o'g'itlar mineral va organik o'g'itlarga bo'linadi. Undan tashqari ularning aralashmasidan iborat organik- mineral kompostlar ham qo'llaniladi.

Mineral o'g'itlar vazifasiga ko'ra o'simliklarni oziqlantirish uchun solinadigan bevosita ta'sir yetuvchi va tuproqlarning fizik-kimyoviy xossalarini yaxshilash maksadida solinadigan bilvosita ta'sir etuvchi o'g'itlarga (oxak, gips) ajratiladi.

Mineral o'g'itlar tarkibidagi oziq moddalar turiga ko'ra oddiy va murakkab (aralashma) o'g'itlarga bo'linadi.

Bevosita ta'sir etuvchi mineral o'g'itlar birorta bir oziq elementdan iborat oddiy va ikki yoki uch xil oddiy o'g'itlarning mexanik aralashmasidan tashkil topgan murakkab (aralashma) o'g'itlarga ajratiladi.

Bilvosita ta'sir etuvchi o'g'itlar (oxak, gips) mahalliy o'g'itlar sifatiga kiradi. Ularni o'ta nam tuproqlarda tuz hosil qilish (oxak bilan o'g'itlash) yoki shurxok yerlarda ishkori hosil bo'lish (gips solish) reaksiyasini neytrallash uchun ishlatiladi.

Organik o'g'itlar tuproqni o'simliklarning barcha uchta asosiy ozuqa elementlari (azot, fosfor, kaliy) bilan boyitibgina qolmay, ularning fizik-mexanik xossalarini ham yaxshilaydi. Organik o'g'itlarning guruhiga go'ng, suyuq go'ng, torf, torfgo'ng kompostlari, najas, o'simlik va xayvonlarning har xil tashlandiqlaridan paydo bo'lgan chirindilar kiradi. Bu guruxhga bakterial o'g'itlar va sideratlar (ko'k o'g'itlar) ham kiradi.

Go'ng asosiy organik o'g'it hisoblanadi. U murakkab kimyoviy birikma bo'lib, uning tarkibida o'simlik uchun zarur bo'lgan barcha oziq elementlari mavjud. Go'ng o'simliklarni oziqdantirishdan tashkari yengil qumok tuproqdarni biriktirish, og'ir tuproqlarni yumshok holatga keltirish, tuproq tarkibida namlikni uzoq saqlab turish maqsadida ham qo'llaniladi. U mineral o'g'itlar bilan kushib yerga solinganda ular tarkibidagi oziq elementlarni tuproqda uzoq saqlanishiga va o'simlik tomonidan ularni yaxshi o'zlashtirilishiga imkon yaratadi.

Go'ng tuproqni gumus bilan to'ydiradigan yagona manba hisoblanadi.

O'g'itlar yordamida o'simliklarni o'sishi va rivojlanishi yaxshilanadi.

O'g'itlashning uch xil usuli qullaniladi: asosiy, ya'ni shudgorlash yoki ekish oldidan o'g'itlash; ekish bilan bir vaktida o'g'itlash; o'simliklarni oziqlantirish, ya'ni ularni usish vaktida o'g'itlash.

O'g'itlarni dala yuzasi bo'yicha taqqsimlash harakteriga qarab o'g'itlash uch usulga ajratiladi: yoppasiga, qatorlab va uyalab (lokal).

Mineral o'g'itlarning texnologik xossalariga zichlik, donalarning o'lchami, to'ukiluvchanlik, ekiluvchanlik, qapishqoqlik, qovushqoqqoqlik, gigroskoplik, har xil materiallar bo'yicha ishqalanish koefitsiyenti kiradi.

Mineral o'g'itlar kukun yoki donador holda ishlab chiqiladi. Donalar o'lchami, odatda 1 dan 4 mm gacha oralikda bo'ladi. O'lchamlarning 4 mm dan kattalashishi donalarning chidamliligini kamaytiradi, bu esa ularning parchalanishiga va sepilishini yomonlashuviga olib keladi.

Mineral o'g'itlarning zichligi keng oralikda (0,8... 1,7 t/m) o'zgaradi.

Ammo, mineral o'g'itlarning asosiy turlari 0,9...1,2 t/m oraliqdagi zichlik bilan harakterlanadi.

O'g'itlarning to'kiluvchanligi ularni teshiklar orqkali o'tish qobiliyati bilan xarakterlanadi. U bir vaqtda to'qilish teshigining bir birlik yuzasi orqali to'kiladigan o'g'it miqdori bilan o'lchanadi. To'kiluvchanlikni bilvosita tabiiy qiyalik burchagi bilan tavsiflasa bo'ladi. Kukunsimon o'g'itlar 35^0 gacha, donador o'g'itlar esa 40^0 gacha tabiiy qiyalik burchagida teshik orqali erkin to'kiladilar. Tukiluvchanlik to'g'ridan-to'g'ri o'g'itlarni teshiklar ustida gumbaz hxosil qilish qkobili, ya'ni zichlashib qoluvchanligi bilan boglik. Bu, avvalo o'g'itlarni namligiga va ularni ayrim zarralarini o'lchamlariga bog'liq. Yuqori namlik o'g'itlarning tukiluvchanligini yo'qukotadi, gumbaz hosil bo'lish qobiliyatiga ega qiladi. Gumbaz xosil bo'lganda o'g'itlarning to'qilishi to'xtaydi.

O'g'itlarning ekiluvchanligi ularni tor tirqishli ekish aparatlaridan gumbaz hosil qilmasdan o'tish kobiliyati. Ekiluvchanlik 10-balli shkala bo'yicha baholanadi.

Ekiluvchanlik bilan to'g'ridan-to'g'ri o'g'itlarni qovushqoqligi boglangan. O'g'itlar qovushqoqligi deganda mexanik ta'sir natijasida (masalan, qorg'ichlar,

ekish apparatlari) ularni ayrim bo'lakchali holatdan plastik, xamirsimon holatga o'tish xossasi tushuniladi. Bu holatda chiqarish teshiklari tiqiladi va ish jarayoni bo'ziladi. Yopishqoqlik - bu o'g'itlar zarralarini bir-biriga yopishib har xil zichlikdagi massa qilish qobiliyatidir. Bunday o'g'itlarni tuproqqa solish oldidan maxsus mashinalarda (masalan, ISU-4) maydalab, 3...5 mm li o'lchamdagi g'alvirlardan o'tkazish zarur.

Gigroskoplik-bu o'g'itlarning havodagi namlikni o'ziga singdirish xossasi. U 12 balli tizim bo'yicha baholanadi. Ball qancha yuqori bo'lsa, gigroskoplik ham shuncha yuqori bo'ladi. O'g'itlar tarkibidagi namlikni oshishi ularning asosiy-to'kiluvchanlik, ekiluvchanlik, qapishqoqlik texnologik xossalarini keskin yomonlashtiradi va xatto ularni mashinalar bilan tuproqqa solish imkoniyatini to'lik yo'qotadi.

Organik o'g'itlarning zichligi namlik va chirish darajasiga bog'liq ravishda keng oraliqda o'zgaradi. Masalan, ya'ni go'ngning zichligi 0,3...0,6 t/m³; yarimchiriganiniki 0,6...0,7; tula chiriganniki 0,7...0,8; chirindiniki 0,8 t/m³.

O'g'itlarning yopishqoqligi ularning zichligiga, namligiga va gumus zarrachalarini miqdoriga bog'lik. Zichlik va gumus zarrachalarining miqdori ko'payishi bilan go'ngning yopishqoqligi oshadi. Eng katta yopishqoqlik 80...84% namlikda bo'ladi.

Go'ngning ishqalanish koeffitsiyenti uning tarkibida pohni ko'payishi bilan kattalashadi, namlik va solishtirma bosimni ortishi bilan kichrayadi. Go'ngni metall yuzasi bo'yicha ishqalanish koeffitsiyentining o'rtacha qiymati 0,85...1,0 oraliqda bo'ladi. Go'ngning tabiiy qiyalik burchagi uni chirish darajasini oshishi bilan 50⁰ dan 38⁰ gacha o'zgarib, kamayadi. Siljish va o'zilishga qarshilik yuqori darajada solishtirma bosim va pohnlikka bog'lik. Masalan, solishtirma bosimni 2 dan 10 kPa gacha oshishi bilan siljishga solishtirma qarshilik 4,5 dan 10 kPa gacha oshadi, pohnlikning 10 dan 50% ga ko'payishi esa solishtirma qarshilikni 7,3 dan 10kPa gacha ortishiga olib keladi.

1.2. Mineral o'g'itlarni granulometrik tarkibini aniqlash usuli va agrotexnik talablar

O'g'itlar donalarining diametri 5 mm dan katta bo'lmasligi kerak, qotib qolgan mineral o'g'itlar maxsus mashinalarda maydalanilganda ularning yirikligi 5 mm gacha ruxsat etiladi. Mineral o'g'itlarning namligi sepish oldidan 15 foiz oraliqda bo'lishi lozim. Mashinalar mineral o'g'itlarni va ularning aralashmasini 0,05...1 t/ga oraliqda solishni ta'minlashlari kerak. O'g'itlarni notekis sepilishi o'g'it seyalkalari bilan +15 foizdan, sochish mashinalari bilan esa +25 foizdan oshmasligi kerak.

Yangi go'ngni qo'llash va organik o'g'itlar tarkibida begona narsalarni bo'lishi ruxsat etilmaydi. Mashinalar organik o'g'itlarni va ularning aralashimasini 5...60 t/ga oraliqda sepishni ta'minlashlari lozim. Organik o'g'itlarni notekis sepilishi qamrash kengligi bo'yicha +15 foizdan, ish yo'lining o'zunligi bo'yicha +25 foizdan yuqori bo'lmasligi kerak.

Barcha turdagi o'g'itlar sepilganda ko'shni o'tishlar oralig'ini to'liq o'g'itlanishini ta'minlash kerak; belgilangan solish chuqurligidan chetlashish +15 foizdan katta bo'lmasligi kerak. Mineral o'g'itlarni yer yuzasi bo'yicha sochish bilan ularni tuproqqa ko'mish vaqtining oralig'i 12 soatgacha ruxsat etiladi.

Mineral o'g'itlarni granulometrik tarkibini aniqlash ishlab chiqilgan usul yordamida amalga oshiriladi. Kerakli asbob uskunalar elektron tarozi va diametri 1,2,3,4,5 mm bo'lgan galvirlar to'planadi. Bu usul quyidagicha amalga oshiriladi: sochilishi rejalashtirilgan mineral o'g'it namunalari tarozida o'lchab bir kg dan olinadi. O'lchami bir kg bo'lgan o'g'it dastlab diametri 5 mm bo'lgan galvirdan, sungra 4 mm va xakoza oxiri 1 mm bo'lgan galvirdan o'tkaziladi. O'lchashlar uch marta takrorlanadi. Olingan qiymatlarning o'rtachasi chiqariladi. Har bir tarkib miqdorining umumiyga nisbatan protsent nisbati aniqlanadi.

1.3. O'g'itlash ishlariga qo'yiladigan agrotexnik talablar

O'g'itlarni sifatli taqsimlashga ularning fizik-mexanik, aerodinamik xossalardan tashqari dalani tayyorlanishiga, harakat yo'nalishiga ish kengligini bir qiymatda saqlashga bog'liq. Yaxshi shaylangan va tayyorlangan mashinada ham o'g'itlar sifatsiz taqsimlanishi mumkin, qaysikim agregatni boshqarish yoki o'g'it tayyorlanishi qoniqarsiz bo'lsa, ko'pincha o'g'itlarni saqlash holatiga kam e'tibor

berishadi. Shunda mashinada sochilayotgan o'g'itlar yuqori namlikda va ular tarkibida har-xil begona narsalar bo'ladi. Shunday hollarda va umuman o'g'itlarni maydalash va ularni g'alvirdan o'tkazish lozim. Dalani tayyorlash va harakat usuliga katta e'tibor berish kerak. Agregatni normal ishlashiga xalaqit qilayotgan to'siqlardan dalani tozalash, agregatni harakat yo'nalishi esa shu dalada oldin harakatlangan mashinalar yunalishi bilan bir xil bo'lishi kerak. Dala bo'ylab ko'ndalang harakatlanishiga ruxsat berilmaydi, chunki silkinish evaziga sochilayotgan o'g'itlar transporterdan silkinish evaziga sochilaётgan o'g'itlar diskka emas birdan yera tushib ketib ish sifatini juda buzadi va ish kengligi kamayadi.

O'g'itlarni tekis sochilishda ish kengligini bir meyarda saqlash muhim o'rin tutadi. Ayniqsa qo'shni o'tishlar, yani agregatni qo'shni izlari o'rtasidagi oraliq masofa bir xilda saqlanishi lozim. Ata shu o'rta oraliq masofani oshishi ko'ndalang notekis taqsimlanishini bir metrga 8. 10 foizga oshirib yuboradi. Masalan: 14 metrli ish kenglikda oraliq masofani 16 metr tashkil etsa u holda notekis taqsimlanishi +25% emas $25+28=41\%$ ni tashkil etadi. Shuning uchun ko'ndalang notekis taqsimlanishini meyoriy kenglik bo'yicha olish zarur, shaylangani bo'yicha emas.

1-jadval

Ish kengligini o'rganish hisobiga ko'ndalang notekislikni o'sishi, %

Eng katta	Ish kengligi, m							
	0	8	10	12	14	16	18	20
1	-	-	-	-	-	-	-	-
2	4,3	2,2	-	-	-	-	-	-
3	8,3	5,3	3,5	2,3	1,4	-	-	-

4	12,4	8,3	5,9	4,3	3,2	2,3	1,6	-
5	16,4	11,4	8,3	6,3	4,9	3,8	3,0	2,3
B	20,4	14,4	10,8	8,3	6,6	5,3	4,4	3,5
7	-	17,4	13,2	10,4	8,3	6,8	5,7	4,7
8	-	20,4	15,6	12,4	10,0	80,3	7,0	5,9
9	-	-	18,0	14,4	11,7	9,9	8,3	7,1
10	-	-	20,0	16,4	13,5	11,4	9,7	8,3
11	-	-	-	-	15,3	12,9	11,0	9,6
12	-	-	-	-	16,9	4,4	2,4	10,8

Agregatni boshqarish bilan bog‘liq bo‘lgan ikkinchi ko‘rsatkich ish kengligini variatsiya koeffitsiyentidir, chiqishlar taqsimlanish sifatini kamaytiradi. Masalan, ish kengligini o‘rtacha ish kenglik belgilanganidek bo‘lishi mumkin, ammo, undan chetga o‘lchaganda (belgilangani 10 m) quyidagi qiymat qatori erishildi: 12,8; 11,5; 9,4; 8,3; 7,8; 10,1; 9,9; 11,2; 9,0; 10,0 m. O‘rtacha kenglik 10 metrni tashkil etsa ham undan chetga chiqishlar notekislikka aniq bir qo‘shimcha beradi. Bu qo‘shimchani aniqlash uchun dalani istagan joyida ish kengligi bo‘yicha o‘nta o‘lchash o‘tkaziladi. Co‘ngra maksimum ish kengligidan minimumini ayirib farq topiladi va shunga binoan jadvaldan foydalanib ko‘ndalang notekislik topiladi.

Ish kengligi juda katta bo‘lganda uning qiymatini saqlash uchun yaxshisi qoziqchalar qoqib dalani bo‘lib chiqish ma’qul.

Agarda dalada traktor g‘ildiragining izi ko‘rinsa, ana shu izga binoan ish kengligini saklash mumkin.


1.4. O‘g‘itlash mashinalarining umumiy tuzilishi

va ularni hisoblash

O‘g‘itlash mashinalarining turi juda ko‘p. Shunga qaramay ular yagona bir prinsipial sxema bo‘yicha tuzilgan bo‘lib, uchta asosiy qismdan iborat: o‘g‘it saqlanadigan sig‘im (kuzov, bunker, yashik); dozlovchi qurilma (tarelka, zanjir-plankali transportyor); sochuvchi qurilma (vertikal o‘qda katta tezlikda aylanuvchi diskalar, halqasimon o‘tqichlar, shneklar va boshqalar). Shulardan tarelkali o‘g‘it seyalkalari va kuzovli ikki diskli o‘g‘it sochgichlar keng qo‘llaniladi.

O'g'it seyalkalarining soddalashtirilgan sxemasi rasmda ko'rsatilgan. Bunday seyalka donalangan (granulalangan) hamda kukunlangan mineral o'g'itlarni galla, sabzavot ekilgan va yaylov uchun ajratilgan yerlarga sepadi. Quti 1 ning tagiga likopsimon miqdorlagichlar o'rnatilgan. Likop 8 majburan aylantiriladi. Likop 8 ustida ikkita parrak 4 lar qotirilgan.

O'g'it quti tubidagi teshiklar orqali pastga, likop ustiga to'kilib turadi. Burilayotgan likop ustidagi o'g'itni quti tagidagi ochiq joyga olib chiqqanida, aylanayotgan parraklar uni sidirib, orqa tomonga irg'itadilar. To'siq 5, o'g'it zarrachalarini yerga sochadi.



1.1-rasm. NRU – 05 mineral o'g'it sochgichning sxemasi.

Uning markazdan qochirma apparati yordamida donalangan mineral o'g'it va siderat (yashil o'g'it) o'simligining urug'ini sepishni ta'minlash mumkin. To'zitkich 8, bunker 7 ga solingan o'g'itni pastga uzluksiz tushirib berish uchun xizmat qiladi. Sochilayotgan o'g'it miqdorini o'zgartirish uchun o'g'it to'kiladigan tarnov teshigini richag 6 yordamida to'suq 10 larni bir-biriga yaqinlashtirish yoki uzoklashtirish bilan sozlash mumkin.

Bunker tubi bilan to'siqlar orasiga zig-zag ko'rinishidagi to'kuvchi planka 11 o'rnatilgan, u val 9 yordamida tebranma harakatga keltirilsa, tarnov teshigidan

o'g'itni siqib chiqaradi. Siqib chiqarilgan o'g'it, to'rt parrakli ikkita sochuvchi disk 12 larga tushadi. Sochuvchi disk reduktor 14 yordamida aylantiriladi. Tebrantiruvchi val 9, to'kuvchi planka 11 va to'zitkich 8, konussimon reduktor 1 orqali harakatga keladi. To'kuvchi planka 11 ning tebranish amplitudasini, ya'ni sochilayotgan o'g'it miqdorini o'zgartirishda, sirpang'ich 5 ni obkash 4 bo'ylab siljitib o'zgartiriladi. Disklar markazdan qochirma kuch ta'sirida o'g'itni sochadi.

Kerakli miqdorda o'g'it sochishni ta'minlash uchun o'g'it tarnovi yoki to'kuvchi plankaning tebranish amplitudasi o'zgartirilishi lozim. Bunday mashina o'g'itni 10...11 m kenglikdagi yerga sochib beradi.

O'g'itlash mashinalari o'g'itlarning vazifasi, o'g'itlash usuli, o'g'itlarning turi va traktorga agregatlash usuli bo'yicha tasniflanadi.

Vazifasiga ko'ra organik o'g'itlarni solish va mineral o'g'itlarni solish mashinalariga bo'linadi.

O'g'itlash usuli bo'yicha asosiy (sochib) o'g'itlash, ekish (ko'chat o'tkazish) davrida o'g'itlash va ekishdan keyin o'g'itlash mashinalariga ajratiladi. Asosiy (sochib) o'g'itlash uchun maxsus mashinalar qo'llaniladi. Ekish davrida va ekishdan keyin (oziqlantirish) o'g'it, odatda, kombinatsiyalashgan mashinalar bilan bajariladi: birinchi holatda seyalkar (ko'chat o'tkazgichlar) bilan, ikkinchi xolatda kultivator-oziqlantirgichlar bilan, kuzgi ekinlarni erta oziqlantirish uchun samolëtlar ham qo'llaniladi.

Solinadigan o'g'itlarning turiga (fizik holatiga) ko'ra o'g'itlash mashinalari quyidagi turlarga bo'linadi: o'g'it sochgichlar, go'ng sochgichlar, kukunsimon o'g'itlarni sochgichlar, shaltoq go'ng sochgichlar, suyuq o'g'itlarni ochish mashinalari.


Ko'p o'g'itlar saqlanish davrida yopishib qoladi, ya'ni katta kesaklar va palaxsalar hosil qiladi, shuning uchun ularga sepish oldidan maxsus ishlov beriladi. Tayyorlash ishlarining quyidagi turlari ajratiladi: maydalash, g'alvirdan o'tkazish va aralashtirish. Maydalash – yopishib qolgan o'g'itlarni sepishga tayyorlashning asosiy texnologik jarayoni. G'alvirdan o'tkazish maydalangan o'g'itlar tarkibidagi

o'g'itlash apparatlarining ishini qiyinlashtiradigan kukunsimon elementlardan ajratishda talab qilinadi.

Gidrofitsiyalashtirilgan sochish mashinasi (RMG turdagi) barcha turdagi va shakldagi mineral o'g'itlarni hamda ohak va gipsarni sochishga mo'ljallangan. U kuzovli bir o'qli traktor pritsepi ko'rinishida (160-rasm) bo'lib uning kuzovi 1 tubida xivichli transportyor 3, orqasida esa qadoqlovchi qopqoq 5 va sochish qurilmasi 6 o'rnatilgan. Transportyor 3 yurish g'ildiragi 2 dan siqish pnevmatik roligi 4 orqali, sochish qurilmasi 6 esa traktor gidrasistemasiga qo'shilagan gidromotordan harakatga keltiriladi.

Xivichli transportyor kuzovdan o'g'itni olib chiqadi va chiqarish tirqishi orqali o'g'it bo'lgichga uzatadi. O'g'it bo'lgichning ikkita shoxobchasi orqali uzatilgan o'g'itlarning sochish qurilmasining aylanuvchi disklari kengligi 6 m dan 14 m gacha bo'lgan dala yuzasining yo'lagiga o'g'itlarni sochadi. O'g'itlarni dala yuzasiga tekis taqsimlanishi o'g'it bo'lgichni kuzov bo'ylab siljitish yoki lotoklarning ichki devorini burash orqali rostlanadi. O'g'it disk markaziga yaqin berilsa, yo'lakning chetki qismida, disk markazidan uzoqroq masofada berilganda esa uning o'rta qismida sochilgan o'g'it miqdori oshadi.

O'g'itlash miqdori 100 dan 6000 kg/ga oraliqda bo'lib, uni transportyor tezligini va qadoqlovchi qopqoqning ochilishini o'zgartirib rostlanadi. Mashinining ishchi tezligi 3,3 m/s gacha.




1.2 - rasm. Mineral o'g'itlarni sochish mashinasi.

1-kuzov; 2-yurish g'ildiragi; 3-xivichli transportör; 4-pnevmatikli siqish roligi; 5-qadoqlovchi kopqoq; 6-sochish qurilmasi; 7-shamol to'suvchi moslama.

Mineral o'g'it sochgichning sodda va ko'p tarqalgan turi quyida ko'rsatilgan. Uning markazdan qochirma apparati ërdamida donalangan mineral o'g'it va siderat (yashil o'g'it) o'simligining urug'ini sepishni ta'minlash mumkin.

To'zitkich *S*, bunker 7 ga solingan o'g'itni pastga uzluksiz tushirib berish uchun xizmat qiladi. Cochilayotgan o'g'it miqdorini o'zgartirish uchun o'g'it to'kiladigan tarnov teshigini richag *b* ërdamida kattalashtirish ëki kichiklashtirish mumkin.



1.3-rasm. NRU-05 markazdan qochirma o'g'it sochgich.

1-reduktor; 2-kardan vali; 3-krivaship-shatunli mexanizm; 4-obkash; 5- sirpang'ich; 6-richak; 7-bunker; 8-to'zitkich; 9-tebrantiruvchi val; 10-to'siq; 11- to'kuvchi planka; 12-sochuvchi disklar; 13-tirkagich; 14-diskga harakat uzatuvchi reduktor; 15-zanjirli uzatma.

Bunker tubi bilan to'siqlar orasiga zig-zag ko'rinishidagi to'kuvchi planka 11 o'rnatilgan, u val 9 yordamida tebranma harakatga keltirilsa, tarnov teshigidan o'g'itni siqib chiqaradi. Siqib chiqarilgan o'g'it, to'rt parrakli ikkita sochuvchi diskka tushadi. Sochuvchi disk reduktor 14 yordamida aylantiriladi.

Tebrantiruvchi val 9, to'kuvchi planka 11 va to'zitkich 8, konussimon reduktor 1 orqali harakatga keladi. To'kuvchi planka 11 ning tebranish amplitudasini, ya'ni sochilayotgan o'g'it miqdorini o'zgartirishda, sirpang'ich 5 ni obkash 4 bo'ylab siljitib o'zgartiriladi. Disklar markazdan qochirma kuch ta'sirida o'g'itni sochadi.

Kerakli miqdorda o'g'it sochishni ta'minlash uchun o'g'it tarnovi yoki to'kuvchi plankaning tebranish amplitudasi o'zgartirilishi lozim. Bunday mashina

o'g'itni 10...11 m kenglikdagi yerga sohib beradi.

Organik o'g'it (go'ng, torf, kompost)ni sochish uchun asosan kuzovli pritsep ko'rinishdagi mashinalar ishlatiladi. Mashinadagi apparatni yechib olib, o'rniga orqa bort o'rnatilsa, bu mashinadan transport vositasi sifatida ham foydalanish mumkin.

Kuzov tubida zanjir chiviqli transportyor *I* harakatlanib, go'ngning pastki qatlamini sidirib uni orqa tomonga suradi. Kuzovning orqa borti o'rniga sochuvchi shneksimon 3 va maydalovchi 2 barabanlar o'rnatiladi. Transportyor va sochuvchi shneksimon baraban traktorning quvvat olish validan harakatlanadi. Sochilayotgan go'ng miqdori transportyor zanjirining tarangligi hamda harakat tezligini sozlab, o'zgartiriladi.

III. TEXNOLOGIK QISM


3.1 Mineral o'g'itlarni sochish jarayonining texnologik xaritasi.

Operatsion-texnologik xaritada agrotexnik, texnik, tashkiliy va iqtisodiy qoidalar ko'zda tutiladi. Bunda asosan taklif etilayotgan mashina, agregatning yuqori ish unumda ishlatish tadbirlari ishlab chiqiladi. Bulardan tashqari xaritada quydagi asosiy ma'lumotlar keltiriladi: ishni bajarishdagi agrotexnik talablar, agregatni ratsional tarkibini tuzish va uni ishga tayyorlash, dalani ekishga tayyorlash, ishni sifat ko'rsatkichlari, ularni baholash, agregatni harakatlanish usuli hamda ish davrida rioya qilinadigan texnika xavfsizligi qoidalari keltiriladi.

Ishning maqsadi mineral o'g'itlarni dala bo'ylab bir tekisda taqsimlanishiga erishish hamda mashinaning qamrash kengligini oshirish natijasida ish unumdorligini oshirish va iqtisodiy samaradorlikka erishish.

1. Haritani ishlab chiqishda kerak bo'ladigan boshlang'ich ma'lumotlar:

- | | | |
|------|--------------------------|-------------------|
| 1.1. | Dalaning uzunligi kamida | 500 m; |
| 1.2. | O'g'itlash miqdori | 300-500 kg/ga; |
| 1.3. | Shamolning tezligi | 5 m/s dan kichik; |
| 1.4. | Relf | 0÷5,0 gradus |
| 1.5. | Agregatning ish tezligi | 10-12 km/soat ; |
- 1.6. Sochiladigan o'g'it donasi ko'rinishi- donador;
- 1.7. Foydalaniladigan mashina rusumi NRU-0,5.
- 1.8. Traktor rusumi TTZ-80.11



3.1- rasm. Mineral o'g'it sochish agregati TTZ-80.11 traktori va NRU-0,5 mashinadan iborat agregatning ko'rinishi

2. Agregat tarkibi.

TTZ-80.11 rusumli traktor va NRU-0,5 osma o'g'itlash mashinasi.

3. Agregatni ishga tayyorlash:

- 3.1. Traktorning oldi qismiga massasi 300 kg bo'lgan yuklar o'rnatiladi;
- 3.2. Traktorning orqa quvvat olish vali qo'shilib, kardanli o'zatma harakati tekshiriladi;
- 3.3. Traktor g'ildiraklari orasidagi masofa kamida 1600 mm bo'lishi lozim;
- 3.4. O'sma mexanizm, avtoilashgich yordamida mashina ko'tariladi, disk va yer orasidagi masofa $N=600-650$ mm bo'lishi ta'minlanadi;
- 3.5. Markaziy tortqi va kashaklarni rostlash yordamida diskni gorizontol holati ta'minlanadi;
- 3.6. Sochiladigan mineral o'g'it mashina bunkeriga solinishidan avval teshigining o'lchami 7 mm dan kichik bo'lgan g'alvirdan o'tkaziladi;
- 3.7. Haqiqiy o'g'itlash miqdori quyidagicha aniqlanadi:

-ish organi tagiga brezent yoki yashikchalar qo'yiladi. Disk bir minut davomida aylantiriladi. O'g'itlash miqdori quyidagicha aniqlanadi:

$$H.O'.M=N.V. \min 60/V \times B \times 10 \text{ bu yerda}$$


$H.O'.M$ -Haqiqiy o'g'it sochish miqdori, kg/ga

$H.O'.$ - bir minut davomida sochilgan o'g'it miqdori;

V -traktorning ish tezligi, km/soat; V -qamrash kengligi, m. Sochilgan o'g'it miqdori belgilanganidan farq qilsa, shunga mos holda rostlanadi.

4. Agregatning harakat usuli.

NRU-0,5 osma mashina bilan o'g'it sochishda mokisimon usulidan foydalaniladi (1.1-rasm).



3.2-rasm. O'g'itlash agregatining dalada harakatlanish sxemasi

5. Ish sifatini aniqlash. NRU-0,5 osma mashina bilan mineral o'g'itlarni sochishda ish sifatini asosan ko'z bilan chamalab nazoratlanadi, ishlab chiqilgan usul bo'yicha esa mineral o'g'itlarni sochishda dalaning uzunligi bo'yicha uch joydan ish kengligiga teng masofada o'lchami $0,5 \times 0,5 \times 0,05$ m bo'lgan yashiklar qo'yib chiqiladi.

6. Texnika xavfsizligi. NRU-0,5 o'g'itlash mashinasida, uning yo'riqnomasi bilan tanishgan mexanizatorni ishlashiga ruxsat etiladi;

- 6.1. Ish boshlashdan avval mashinaning barcha tarkibiy qismlarining birlashtirilgan joylari tekshirib ko'riladi;
- 6.2. Ta'mirlash, rostlash va moylash ishlari mashinani yerga tushirib, traktor dvigatelini o'chirib bajariladi.
- 6.3. Xizmat qiluvchi shaxs respirator bilan ta'minlangan bo'lmog'i zarur.
- 6.4. Bunkerga changli o'g'it yuklashda xizmat qiluvchi shaxs shamol yunalishi tomonda turishi, og'iz va burunlari bir necha qavat doka bilan bog'langan bo'lishi zarur. Ish tugagach, ovqatlanishdan avval yaxshilab yuvinishi va og'zini chayqashi lozim. Shamol bo'lgan paytlarda xizmat qiluvchi shaxs ko'ziga ko'zoynak taqib olishi lozim.

Quyidagilar qat'iyon taqiqlanadi: Nosoz mashinadan foydalanish;

mashina yoki traktorning zinasida ular ishlayotgan paytda turish; agregat ishlayotganda kamida 15 m dan yaqin masofada bo'lish; ish vaqtida ishchi organlarni rostlash, tozalash.

Respublikamiz qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida yerni o'g'itlash ikki usulda amalga oshiriladi. Birinchisi yoppasiga, ya'ni o'g'itlar dala yuzasi bo'ylab taqsimlanadi, ikkinchisi tuproqning pastki 8-12 sm li qatlamiga, ya'ni belgilangan joylarga beriladi. Birinchi usul bilan barcha o'g'itning 60 foizi dala yuzasi bo'ylab taksimlanadi va shudgorlash orqali tuproq tagiga ko'miladi.

Mineral o'g'itlarni yoppasiga taqsimlash usuli, dunyo bo'yicha asosan markazdan qochma disksli ish organlar bilan jihozlangan mashinalar yordamida amalga oshiriladi. Markazdan qochma disksli ish organlarining ko'rinishi va tuzilishi turlicha bo'lishiga qaramasdan ular quyidagi ko'rsatgichlarni qanoatlantiradigan talablar asosida konstruksiyalanadi:

- chiqish burchagi $< 90^\circ$;
- sochish burchagi $< 180^\circ$;
- o'g'itlarni notekis taqsimlanishi $\pm 25\%$ dan oshmasligi.

Chiqish - α burchagi disk 1 dagi o'g'it tushayotgan joy 4 markazi bilan kurakcha 1 dan o'g'it donalarining chiqib ketish boshlanishi oralig'idagi burchak hisoblanadi.

Mutaxassislarning fikricha va ularning ko'rsatishicha bu burchak $45 < \alpha < 90$ oralig'ida bo'lishi lozim.

Disk 1 ning ω -burchak tezlik bilan aylanishi davomida kurakchalardan o'g'it donalarining chiqishi boshlangandan tugagunigacha bo'lgan oralikdagi burchak chiqish- β burchagi deyiladi.

O'g'it donalarining dala yuzasi bo'ylab tekis taqsimlanishi chiqish burchagining kattaligiga bog'liq bo'lib, disk diametri va undagi kurakchalar sonidan kat'iy nazar 180° dan oshmasligi lozim.

Ushbu qo'yilgan talablar bajarilishini tekshirish usuli 13-rasmda keltirilgan moslama yordamida amalga oshiriladi. Moslama bir-biriga nisbatan 90° burchak ostida qo'zg'almas bipiktipilgan to'ppta kypakcha 1 o'pnatilgan vertikal o'q

atpofida *W*-bypchak tezlik bilan aylanayotgan mapkazdan qochma disksimon ishchi opgan 2 va sochilgan o'g'itlapni yig'ib typyvchi o'g'it to'plagich Z dan tashkil topgan.

Moslamadan foydalanish quyidagicha: disk 2 aylanma harakatga keltipilib, yndagi belgilangan joy 4 gao'g'it uzluksiz pavishda to'kiladi. Disk 2 va kuruakchadan chiqayotgan o'g'it donalapi to'plagich 3 ning bo'linmalapida to'planadi. To'plagich o'zapo teng, hap bipi 15 bypchak hosil qiluvchi o'n ikki bo'lakka bo'lingan va mos pavishda 1-12 paqam bilan nomeplanadi. Tajriba kamida o'n sekund davom etishi lozim. Disk 2 ga to'kilaëtgan o'g'it mikdopi o'ptacha 1,0 kg/sek bo'lca, har bir maydonga taxminan 400 kg o'g'it mikdopi to'g'pi keladi. Belgilangan mikdopdagi o'g'it taksimlangach disk 2 aylanishdan to'xtatiladi.

Hap bip bo'linmadagi o'g'it alohida idishga to'kib olinib, elektron tapozida o'lchanadi.

Olingan natijalap tahlil qilinishi uchun, koopdinatalap sistemasining OX o'qiga to'plagich bypchaklapi gpadyeda ifodalanadi, hap 15° burchak oralig'ida, OU o'qiga esa to'plagich bo'linmalaridagi o'g'it miqdori qo'yiladi.

Ma'lumotlar asosida o'g'it donalarining chiqish burchagi bo'yicha notekis taqsimlanishi tahlil qilinadi.


Notekis taqsimlanishni bartaraf etish diskga o'g'it tushish joyini o'zgartirish orqali amalga oshiriladi. Tajriba uch marta takrorlanish va natijalar bo'yicha o'rtacha qiymatni hisoblash bilan diskga o'g'it tushish joyi tanlanadi.

O'g'it donalarining chiqish burchagi bo'yicha tekis taqsimlanishi ta'minlangach ularni dala yuzasi bo'yicha notekis taqsimlanish miqdorini tekshirishga kirishiladi. Bu qiymat agrotexnik talablarga asosan ish kengligi bo'yicha $\pm 25\%$ dan yuqori bo'lmasligi lozim.

Tajriba o'tkazilishi uchun eni va bo'yi 15 m dan kichik bo'lmagan maydon tayyorlanib, unga nomerlangan va o'lchami 0,5 x 0,5 x 0,05 m bo'lgan yashiklar 2-rasmda ko'rsatilgan tartibda quyib chiqiladi.

Disk 1 miqdori 650-700 ayl/min bo'lgan aylanma harakatga keltiriladi.

Undagi belgilangan joyga o'g'it tusha boshlagach, u o'g'it donalarini yashikcha 3 lar quyilgan dala yuzasi bo'yicha taqsimlaydi. Bu usulda ham tajriba kamida un sekund davom etishi lozim. Belgilangan miqdordagi o'g'it taqsimlangach, ularning har bir yashikchadagi massasi elektron tarozida o'lchash yo'li bilan aniqlanadi.



3.3-rasm. O'g'it donalarining dala yuzasi bo'yicha notekis taqsimlanishini aniqlash sxemasi

1-disksimon o'g'it taqsimlagich; 2-kurakchalar; 3-yashikchalar

